

IJTOMIY HIMOYA VA GENDER TENGLIK SIYOSATI DOIRASIDA AYOL VA QIZLARNING TA'LIM, FAN VA TEXNOLOGIYA SOHALARIDAGI YUTUQLARI YANGI O'ZBEKISTON MISOLIDA

Odilova Sevaraxon Ibrohimjon qizi

Andijom davlat pedagogika inistituti huquq ta'limi magistranti

Annotitatsiya; Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoya va gender tenglik siyosati doirasida ayol va qizlarning ta'lim, fan va texnologiya sohalaridagi yutuqlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ayol va qizlarning ta'lim olish huquqlarini ta'minlash, ularning ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatdagi ishtirokini oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va institutsional mexanizmlar o'rganiladi. Statistik ma'lumotlar va qiyosiy tahlil asosida so'nggi yillarda ayol va qizlarning oliy ta'lim, ilm-fan va texnologiya yo'nalishlaridagi faolligi va natijadorligi ortib borayotgani asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, gender siyosatini rivojlantirish va ta'lim jarayonida ayol va qizlar salohiyatidan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar; yangi o'zbekiston, islohot, huquq, ijtimoiy himoya, fan-texnologiya, gender tenglik, ta'lim.

Abstract; This article provides a scientific analysis of the achievements of women and girls in the fields of education, science, and technology within the framework of social protection and gender equality policies in New Uzbekistan. The study examines legal frameworks, state programs, and institutional mechanisms aimed at ensuring women's and girls' right to education and enhancing their participation in research and innovation activities. Based on statistical data and comparative analysis, the article demonstrates a growing involvement and productivity of women and girls in higher education, scientific research, and technological sectors in recent years. The research findings contribute to improving the social protection system, developing gender equality policies, and effectively utilizing the potential of women and girls in the education process.

Keywords: New Uzbekistan, reforms, law, social protection, science and technology, gender equality, education.

Yangi O'zbekistonda gender tengligi va ijtimoiy himoya siyosati doirasida ayollar va qizlar ta'lim, fan hamda texnologiya sohalarida sezilarli bugungi kunda sezilarli yutuqlarga erishmoqda, bu ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan islohotlar, xususan, xotin-qizlarning ilm-fan sohasidagi ishtirokini oshirish, ularni gender

zo‘ravonlikdan himoya qilish, shuningdek, ta‘lim tizimini gender tenglik tamoyillari asosida takomillashtirish kabi sa‘y-harakatlar bilan izohlanadi.

Buyuk ma‘rifatparvar Abdulla Avloniy “Qizlar bilim olishga hammadan ko‘proq intilishi lozim. Zero, bu bilimlar bilan ular kelajak avlodni tarbiyalaydilar”, deb bejiz aytmagan.⁶⁴ Uchinchi Renessansga erishish yo‘lida xotin-qizlarni yanada bilimli, ma‘rifatli qilish eng asosiy vazifalardan biridir. Xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini ko‘tarish davlatimiz siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri xisoblanadi. Aynan Shu bois, ham bu boradagi ishlarning amaliy isboti sifatida so‘nggi yillarda nozik jins vakillarining jamiyat hayotidagi o‘rnini oshirishga qaratilgan qator farmon va qarorlar, jumladan, Xotin-qizlar ta‘limini qo‘llab quvvatlashning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan dasturi qabul qilindi. Bu ishlarning boshida albatta yurt boshimizning o‘zlari turib xotin va qizlarning har tomonlama bilm olishlar va har bir sohada o‘z faoligini ko‘rsatib berishlari uchun sharoit yaratib bermoqdalar. Bu islohotlarga yaqqol misol tariqasida; Prezident Shavkat Mirziyoevning «Yer yuzidagi har qaysi jamiyatning madaniy darajasi uning ayollarga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi.... sog‘lom zurriyod, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdagi o‘rningiz va xizmatingizni hech narsa bilan qiyoslab, baholab bo‘lmaydi. Sizlarning mehmuhabbatingiz, vafo va sadoqatingiz, fidoyiligingiz sababli hayotimiz charog‘on»,⁶⁵ - degan fikrlari albatta juda ham e‘tiborlidir. Shuning uchun ham O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, ular uchun munosib mehnat va turmush sharoitini yaratib berish, qobiliyat va salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalasi mamlakatda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Yana shu o‘rinda savol tug‘ulishi mumkin, nega aynan ayollarning bilm va saalohiyatini oshirishga bu qadar e‘tibor berilmoqda? Sababi shundaki Ma‘rifatli ayol jamiyatning taraqqiyot yo‘lini belgilab beradi. Chunki, aynan ayol bolalarni tarbiyalaydi va ongi, dunyoqarashi, bilim darajasini shakllantiradi. Ayaniqsa Qiz bola oliy ma‘lumotli bo‘lsa, yuksak bilim va salohiyat egasiga aylansa, buni kelgusida farzandlariga ham singdiradi. Har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasiga mas‘uliyat bilan yondashadi. ayolga tabiatan avlodlar zanjirini davom ettirish va millatning qadrini ko‘taradigan farzandlarni tarbiyalashdek ulug‘ vazifa yuklangan. Shunday ekan, shukrona tuyg‘usi bilan yashash va qizlarimizni o‘qitishni kun tartibidagi birinchi masala sifatida belgilasak, yurtimiz rivojiga hissa qo‘shgan bo‘lamiz.

⁶⁴ Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent: O‘qituvchi, 1992. — 160 b.

⁶⁵ Mirziyoev, Sh. (2023, 8 iyun). Ayollarga munosabat — jamiyat madaniyatining mezon. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya nutqi, Toshkent.

Shu islohotlardan unumli foydlangan xolda xozirgi kunda ayol va qizlar ham texnika va texnologiya, fan va san'at sohasida ham o'zlarini ko'rsatib kelmoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ilmli ayol – jamiyat ko'zgusi" shiori ostida "XXI asr ayoli" xotin-qizlar festivalini Respublika va hududlar miqyosida tashkil etish va o'tkazish to'g'risida 2023-yil 31-iyulda 34- son majlisi bayoni ijro uchun yo'naltirildi.⁶⁶ Mamlakatimizda olim ayollar va ilmiy izlanishlarni olib borayotgan tadqiqotchi xotin-qizlar ishtirokida forum, seminar, uchrashuv va davra suhbatlari hamda ta'lim muassasalari va mahallalarda ilmiy-amaliy va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ko'rik-tanlovlar va ilm-fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga qaratilgan tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida faoliyat yuritayotgan olimalar, ma'rifatparvar ayollar, "Oqila ayollar" harakati a'zolari, xorijiy kompaniyalarda samarali faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar va yirik tadbirkor ayollar, davlat mukofotlari va Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindorlari ishtirokida "Ilm saodat kaliti", "Bitta qiz bolani o'qitsangiz – butun oilani o'qitgan bo'lasiz", "Ayol ilmli bo'lsa, kelajak avlod bilimli bo'ladi" mavzularida qariyb 4,5 mingga yaqin maktablarda davra suhbatlari tashkil qilinib, 52 ming nafardan ziyod o'quvchi qizlar qamrab olindi. Bunday ayollarning yutuqlari albatta oila uchun balki davlat va jamiyat muvofiqiyatli natija xisoblanadi.

Yana shu o'rinda yurtboshimizning qo'llab quvvatlashlari bilan yurtimizda ilmiy ish qilayotgan ayollar va qizlarni qo'llab quvvatlash maqsadida, oliy ta'limda taqsim olayotgan temir daftarda turgan, boquvchisini yo'qotgan oilarning qizlarni kontrak summalarini ayrim foizi davlat tomonida qoplab berilayotganligi va yana eng asosiysi magistrlar ayollar esa butunlay bu summadan ozod etilganligi bu davlatimizning bugungi kunda ayollarga bo'lgan e'tibori juda ham yuksak ekanligini yaqqol isbotidir.

2016 yildan boshlab har yili 11 fevral "Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni" (International Day of Women and Girls in Science) sifatida nishonlanadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, ayollarning 32 ilm-fandagi ishtirokiga e'tibor qaratish va qo'llab-quvvatlashdan iborat. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining SQ-682-IV-sonli "2030 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi"⁶⁷ to'g'risidagi qarorida belgilangan vazifalarni keltirish mumkin. Uning asosiy maqsadi iqtidorli talaba qizlarni qo'llab quvvatlash bo'ldir. Misol uchun Magistrlar xususan 30 yoshgacha bo'lgan ayollarni qo'llab quvvatlashdan iborat. Raqamlarga ko'ra

⁶⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2023-yil 31-iyul, 34-son bayon.

⁶⁷ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati. (2021). *2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi* (SQ-682-IV-son).

O‘zbekiston ilm fan olamining taxminan 30% ini ayollar tashkil qiladi. “Olima” uyushmasi esa ilm fanga qiziqqan 7000 mingdan ortiq a’zolarga ega. 2022-2023 yillarda o‘tkazilgan ilmiy va innovatsiyon tanlovlarda 1,7 trillion so‘mlik 111 ta ilmiy tadqiqot bilan ishtirok etgan. Mashularning barchasi ayan yangi o‘zbekistonda ayollarga berilayotgan imkoniyatlarning to‘laqonli natijasidir.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi vaqtda xonadonlarimizning fayzu farishtasi bo‘lgan, farzandlarimizni barkamol insonlar etib tarbiyalashga munosib hissa qo‘shayotgan ayollarimiz barcha islohotlarimizda faol ishtirok etmoqdalar. Bu, o‘z navbatida, hurmatli onalarimiz, opa-singillarimizga doimiy e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining uzviy qismi bo‘lib kelayotganining yorqin dalolatidir.

Shu o‘rinda Jamiyatning demokratik o‘zgarishlar yo‘lidan nechog‘lik ilgarilab ketgani – shu jamiyatning ayollarga munosabati, bu boradagi madaniy-ma’naviy saviyasi bilan belgilanadi. Zero, oqila, go‘zal ayollar o‘zlarining g‘amxo‘rligi, mehribonligi, qalbi daryoligi bilan oilalardagi, qolaversa, butun jamiyatdagi muvozanatni, poklik, halollik, samimiyat va adolat muhitini saqlab turadilar.

Foydalangan adaabiyotlar

1. Avloniy, A. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent: O‘qituvchi, 1992. — 160 b.
2. Mirziyoev, Sh. (2023, 8 iyun). Ayollarga munosabat — jamiyat madaniyatining mezoni. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya nutqi, Toshkent.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2023-yil 31-iyul, 34-son bayon.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati. (2021). *2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi* (SQ-682-IV-son).